

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
PEDAGOGIKA

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

S.T.Xalikova	
Sportchilarda milliy mafkuraviy bilim va malakalarni shakllantirish	94
R.Z.Raxmonova	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning suggestiv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik asoslari	98
M.R.Umurzakova	
Maktabdan tashqari pedagogik jarayonlarni takomillashtirish mexanizmlari	103
B.A.Umarov	
Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning mazmuni va malakaviy amaliyotni tashkil etish bosqichlari.....	107
S.B.Shermuhammadova	
Mustaqil o'qish tushunchasining mazmuni va ta'limdagi ahamiyati.....	111
T.Y.Bakirov	
Stereometriyani o'qitishda tasvirli masalalardan foydalanish imkoniyatlar	115



UO'K: 796.01:37.015

SPORTCHILARDA MILLIY MAFKURAVIY BILIM VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH

ФОРМИРОВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНО-ИДЕОЛОГИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ И НАВЫКОВ У СПОРТСМЕНОВ

FORMATION OF NATIONAL IDEOLOGICAL KNOWLEDGE AND SKILLS AMONG ATHLETES

Xalikova Sevara Turdialiyevna 
Farg'ona davlat universiteti talabas

Annotatsiya

Ushbu maqolada yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan islohotlar yoritilgan.

Аннотация

В данной статье освещены реформы, направленные на создание современных условий для регулярных занятий молодого поколения физической культурой и массовым спортом, укрепление у молодежи веры в свою волю, силу и возможности посредством спортивных соревнований, воспитание чувства мужества и патриотизма, преданности Родине, а также системную организацию работы по отбору талантливых спортсменов из числа молодежи и дальнейшее развитие физической культуры и массового спорта.

Abstract

This article highlights reforms aimed at creating modern conditions for the regular engagement of the younger generation in physical culture and mass sports, strengthening young people's confidence in their will, strength, and capabilities through sports competitions, fostering courage and patriotism, and devotion to the Motherland, as well as systematically organizing the selection of talented athletes from among young people and further developing physical culture and mass sports.

Kalit so'zlar: jismoniy ruhiy, taktik, ilg'or pedagogik texnologiyalar, jismoniy madaniyat, o'zlikni anglash, hamjihatlik, vatanparvarlik tuyg'ulari, iroda, kuch, ommaviy sport, inson, oila.

Ключевые слова: физическая, психологическая, тактическая, передовые педагогические технологии, физическая культура, самосознание, солидарность, патриотические чувства, воля, сила, массовый спорт, человек, семья.

Key words: physical psychological, tactical, advanced pedagogical technologies, physical culture, self-awareness, solidarity, patriotic feelings, willpower, strength, mass sports, person, family.

KIRISH

Hozirgi kunda sportchilarning amaliy faoliyati qirralarini yangi shakl, vosita va uslublar vositasida o'rganuvchi fan sifatida sportchilarni ilmiy asosda boshqarish ishlarini tog'ri tashkil etish, sportchilarga yangi nazariy bilimlar berish, ularning shaxsiy muammolarini yechish uchun yo'l-yo'riq ko'rsatadigan fan sohasiga aylandi. Sportchilarning texnik, jismoniy ruhiy va taktik tayyorgarligini, sportchi shaxsini tayyorlash, sportchilar jamoasini takomillashtirish masalalarini hal qilishga erishdi. "Ta'lim oldidagi eng muhim masalalardan biri jismoniy madaniyat va sport fanlarini ham jahon andozalariga javob beradigan o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'qitishdir. Shuning uchun bu masalaga chuqur ilmiy-uslubiy va metodologik nuqtayi nazardan yondashishga to'g'ri keladi. Chunki har bir millat taraqqiyotida; xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratini ta'minlashda jismoniy madaniyat va sport muhim o'rin tutadi"[1,88-89].

Sportchilarning bilish jarayonlari psixologiyasini shakllantirdi va sportchilarning irodaviy sifatlarini tarbiyalash, musobaqaga psixologik jihatdan tayyorlash mexanizmlarini ishlab chiqdi [2,78.]. Natijada sport psixodiagnostikasi kabi sohalar paydo bo'ladi. Bu esa o'z navbatida

bosqichda ko'plab tadqiqot ishlari bajarilib, sportchilarni umumiy psixologik tayyorlash masalalari ishlab chiqildi.

"Turli xalqaro turnirlar, jahon chempionatlari va Olimpiya o'yinlaridagi muvaffaqiyatli ishtiroki va sovrinli o'rinlari tufayli O'zbekistonning xalqaro nufuzi tobora ortib bormoqda. Sportdagi bu yutuqlar xalqimizda o'zlikni anglash, hamjihatlik, vatanparvarlik tuyg'ularining yuksalishiga olib keldi. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev "Biz O'zbekistonning xalqaro sport maydonlarida obro'-e'tibori va nufuzini oshirishga katta hissa qo'shgan sportchilarimiz bilan faxrlanamiz. Shu bilan birga, sportning yuqori saviyasidagi yutuqlar bilan cheklanib qolmaslik kerak, shuningdek, biz ham o'zimizni xalqaro sport maydonlarida qo'lga kiritishimiz kerak. Ommaviy sportga katta e'tibor qarating" nomli maqolasi mamlakatimizda aholi o'rtasida ommaviy sportni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayotganidan dalolatdir. Jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Musobaqa davomida o'yinchilar va jamoa tinimsiz tayyorgarlik (mashg'ulot) tufayli erishgan o'z imkoniyatlarini g'alabani qo'lga kiritishga bag'ishlaydilar. Lekin boshqaruvsiz qolgan bunday imkoniyatlar, har bir o'yinchi va bugun jamoaning o'yin faoliyati har doim ham g'alabaga olib kelavermaydi. Aksincha, musobaqa amaliyotida zaif tayyorgarlikka ega o'yinchilar va jamoa o'yin faoliyati strategiya bilan boshqarilganda "kuchli" jamoa ustidan g'alabaga erishish hollari ko'p uchraydi. Binobarin, musobaqalarda o'yinchilar va jamoa faoliyatini ustalik bilan boshqarish o'yinni foydali natija bilan yakunlanishiga olib keladi"[3,234.].

NATIJA VA MUHOKAMA

Jismoniy tarbiya va sport barcha yoshdagi insonlar hayotida jismoniy faolligi va salomatligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizning barcha hududlarida ommaviy sportning inson va oila hayotidagi muhim ahamiyati, uning jismoniy va ma'naviy sog'lomliqining asosi ekanini targ'ibot tashviqot qilish, hayotga katta umid bilan kirib kelayotgan yoshlarni zararli odatlardan asrash, ularga o'z qobiliyat va iste'dodlarini ro'yobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ular salomatligini asrab-avaylash va yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga jalb qilishdek muhim va dolzarb vazifalar turibdi. Jismoniy tarbiya darslarining asosini o'quvchilarni jismoniy sifatlarini rivojlantirish va salomatligini yaxshilashdan iborat bo'lib, jismoniy sifatlarini tarbiyalash jismoniy tarbiya darslarida asosan sportning yengil atletika, gimnastika, harakatli va sport o'yinlarini orqali harakat ko'nikma va malakalar o'zlashtirib olishdan iborat. Jismoniy tarbiya darslarida sport o'yinlari bilan birga harakatli va estafetali o'yinlardan foydalanish o'quvchilarni jismoniy sifatlarini rivojlantirish va harakat malakalarga o'rgatish samaradorligini oshiradi. Agar yuklama shug'ullanuvchilar imkoniyatidan o'ta yuqori bo'lsa, bunday yuklama shug'ullanuvchilar organizmiga salbiy tasir ko'rsatadi. Aksincha, o'ta past bo'lsa, shakllanish jaryoni susayib ketadi. Yoshlarni jismoniy tarbiya va sportning ommaviy turlari bilan shug'ullantirish ishlari yaxshi yo'lga qo'yish, ularni jismonan sog'lomlashtirish, ularning jismoniy sifatlarini rivojlantirishning samarali vositalarini izlab topish dolzarb masala hisoblanadi[4,56-57.].

Jismoniy tarbiya tizimining muhim bosqichlaridan biri jismoniy vositalardir. Ularning tarkibiy qismi esa gimnastika, sport turlari, harakatli o'yinlar va tabiatning sog'lomlashtiruvchi kuchlaridan iborat. Milliy va harakatli o'yinlar jismoniy tarbiya darslarida qo'llanilishi yaxshi samara beradi. Shu tufayli sport o'yinlari, gimnastika, yengil atletika kabi darslarda harakatli o'yinlarni nomigagina yuzaki tashkil qiladilar. Harakatli o'yinlar uchun ajratilgan alohida soatlarni ham boshqa turlarga qo'shib yuboradilar. Har bir sport turida mashg'ulotlarni yoki darslarni harakatli o'yinlar bilan olib borilsa qiziqarli bo'ladi. Chunki o'quvchilar bir xil mashqlarni qaytaraversalar ularni zeriktirib qo'yishi va qiziqishining so'nishiga olib keladi. Agar harakatli va estafetali o'yinlar bilan olib borilsa kutilgan natijaga erishish mumkin bo'ladi [5,66.].

Jonajon yurtimiz istiqbolga erishgan ilk kunlardanoq, yurtboshimiz aholining tinchligi, osoyishtaligi va ularning farovon hayot kechirishi uchun barcha ezgu ishlarni ham amalga oshirishga kirishdi. Xususan, mamlakat aholisini yarmidan ko'prog'ini tashkil etuvchi yoshlarga,

PEDAGOGIKA

ularning bilim olishi va salomatligini mustaxkamlash bo'yicha qabul qilingan davlat dasturlari, qaror va Farmonlar maqsadli rejalarni ham amalga oshirishga zamin yaratmoqda. Jumladan, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Ta'lim togrisida"gi, "Jismoniy tarbiya va sport to'grisida" gi qonunlarda ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya uzluksiz ta'lim tizimining eng muhim majburiy qismi bo'lib, davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari va dasturlarga muvofiq, yuqori malakali mutaxassislar tomonidan ham amalga oshirilishi, jismoniy tarbiya bo'yicha majburiy darslar, darsdan tashqari mashg'ulotlar va test sinovlari barcha ta'lim muassasalarida o'quvchilarning fiziologik imkoniyatlariga mos ravishda o'tkazilishi hamda ta'lim muassasalarida harbiy xizmatga chaqirish yoshiga yetmagan yoshlarni jismoniy jihatdan tayyorlash masalalariga e'tibor qaratilgan. Yoshlarni sportga jalb etish ayniqsa, bolalar sportini yanada rivojlantirish, har bir shahar va qishloqda zamonaviy talablarga javob beradigan, zarur anjomlar bilan jihozlangan sport maydonchalari, inshoot va majmualarni barpo etish bo'yicha amalga oshirayotgan ishlar o'zining ijobiy samarasini bermoqda. Umum ta'lim maktabida yengil atletika bilan shug'ullantirish o'quv mashg'ulot shaklida bo'ladi. O'rgatish etaplari quyidagilardan iborat:

1. Kirish;
2. O'qitish;
3. Takrorlash;
4. Takomillashtirish;
5. O'tilgan materiallarni mustahkamlash.

Mashg'ulotni o'zlashtirish, bilish, malaka hosil qilish, jismoniy tayyorgarlik texnik tayyorgarlik va oxirgisi aralash mashg'ulotlar. Mashg'ulotlarni tiplariga qaramay quyidagi qismlarga bo'linadi. Kirish, tayyorlov, asosiy va yakunlov mashg'uloti (asosan dastlabki qismi birlashtirilgan bo'linadi) Kirish qismiga qo'yiladigan vazifalar, saflanish, raport, asosiy vazifani ma'lum qilish. O'quvchilarni mashg'ulotga tashkillash tayyorlov qismi o'quvchilarni asosiy vazifani bajarish holatiga olib kelishdir. Bunda asta sekin yugurish va umuman rivojlantirish, mashq berish asosiy qismda yangi bilim o'rgatiladi. Bunda Yengil atletika turlari o'rgatiladi, malaka hosil qilinadi va takomillashtiriladi.

Yakunlov qismida mashg'ulot yuklamasi pasaytiriladi, o'tilgan mashg'ulotga yakun yasaladi va uyga vazifa beriladi. 45 minutlik mashg'ulot quyidagicha taksimlanadi: kirish qismi 3 minut, tayyorlov qismi 12 minut, asosiy qismi 25-27 minut, yakunlov qismiga 3 minut vaqt sarflanadi. Mashg'ulotning asosiy hujjat konspekt hisoblanadi. Bunda o'tiladigan mashg'ulot davomiyligi ifodalangan bo'ladi. Yengil atletika mashg'ulotlarini o'rgatish, yugurish, sakrash va uloqtirishlarni o'zlashtirish va ularni takomilliga yetkazishga qaratilgan. 5-sinfdan boshlab mashg'ulotlarga yosh yengil atletikachilar uchun zarur bo'lgan fazilatlaridan tezkorlikni, kuch va chidamkorlikni rivojlantirish yordam beruvchi mashqlar kiritiladi.

O'quvchilar programmasiga muvofiq chuqurroq o'rganish mashg'ulotlarida qisqa masofalarga yugurish, o'rta masofalarga yugurish, govlar osha va estafetali yugurish, «xatlab o'tish» va «perekidnoy» usullarida balandlikka sakrash, «oyoqlarni yig'ib» va «qaychi» usullarida o'zunlikka sakrash texnikalarini o'rganadilar. Granata va nayza hamda yadro otish texnikalarini o'zlashtirib boradilar. Yengil atletika mashg'ulotlarning shakllari to'g'ri tashkil etilgan mashg'ulot butun jismoniy tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi, mustaqil ish ko'rish, ijod qilish, qo'pol xatolarga yo'l qo'ymaslik va ishda ko'zbo'yamachilikni yo'qotish imkonini beradi. Yengil atletika bo'yicha mashg'ulotlar muntazam tashkil etilishning asosiy shakli asoslangan holda jismoniy tarbiya mashg'uloti qisoblanadi. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari muntazam mashg'ulot jadvaliga qo'yilishi, uzoq muddat dastur asosida ishlab chiqilgan o'quv rejasi asosida o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi bilan farqlanadi. Mashg'ulotlarni muntazam tashkil etilish, umumiy jismoniy tarbiyada, professional jismoniy tayyorgarlikda va sport mutaxassisligida tejamli va samarali usul hisoblanadi [6,44-45].

Mamlakatimiz xavsizligini bugungi va ertangi kunini hal qiluvchi kuchi bo'lmish o'sib, unib kelayotgan yoshlarimizni har tomonlama mafkuraviy qurollantirishni zamonning o'zi talab qilmoqda. Agar bu tushunchani qurollantirish emas, balki qurollanmogi kerak desak, bevosita ularni o'z holiga tashlab qo'ygan va ko'ziga "yaltirab" ko'ringan narsani o'zlashtirishga sharoit yaratgan bo'lamiz. Shunday ekan, yoshlarimizda turli xil yot va zararli g'oyalarga qarshi kurashish uchun mafkuraviy immunitetni yanada rivojlantirish, ularni turli xil g'oyaviy va mafkuraviy tahdidlardan asrash, jamiyatda mafkuraviy immunitet hosil qilish orqali taraqqiyot qonunlarini

chuqur aks ettiradigan sog'lom, barkamol avlodlarni tarbiyalab, voyaga yetkazish lozim. Shundagina biz istiqbolda ma'naviy barkamol insonni, sog'lom avlodni tarbiyalashga erishamiz. Jamiyatimizning ustuvor vazifalaridan biri ham barkamol avlodni tarbiyalashdan iboratdir. Zero, ma'naviy barkamol insonlarga buyuk kelajakni yarata oladilar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш. М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4 жилд.-Тошкент;. 2020.
2. Y.Masharipov. Sport Psixologiyasi. O'quv qo'llanma. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti - Toshkent; 2010.
3. Suyunov Abror Baxtiyor o'g'li. Ommaviy sport musobaqalarida jamoalarni boshqarish./“Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirishning ilmiyuslubiy asoslari” respublika ilmiy-amaliy anjumani. 23-fevral 2024-yil.
4. O'zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida”gi Qonuni (yangi tahriri) Toshkent, 2015 yil 4 sentyabr.
5. Matkarimov Azizbek Muzaffar o'g'li. Jismoniy tarbiya darslarida maktab o'quvchilarining jismoniy sifatlarini rivojlantirishda milliy va estafetali o'yinlardan foydalanish./Ommaviy sport musobaqalarida jamoalarni boshqarish. “Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirishning ilmiyuslubiy asoslari” respublika ilmiy-amaliy anjumani. 23-fevral 2024-yil.
6. Ro'zimatov Islomjon Erqo'ziyevich. Yengil atletika mashg'ulotining mazmuni va ularni tashkil qilish shakllari./ Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti Ommaviy sportni tadqiq qilish o'quv laboratoriyasi. 23-fevral 2024-yil.